



ZOOFRAZEOLOGIZMLARNING XORAZM O'G'UZ SHEVALARIDA QO'LLANILISHI

Shamuratova Malohat Ilhambekovna,

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: sheva, lahja, dialekt, o'g'uz lahjasi, frazeologizm, frazema, leksik,

Ключевые слова: диалект, огузский диалект, фразеология, лексика.

Keywords: dialect, dialect, Oghuz dialect, phraseology, lexicon.

Frazeologizmlarda tilning milliy xususiyati, millatning tafakkuri, uning tarixi va madaniyati, bugungi va ertangi kuni rasm-rusumi, urf-odatlar va shular bilan birgalikda bu xalqning zoonimlarga bo'lgan munosabati ham aks etadi. Tafakkur va ong jarayonlari hamma insonlarda bir xil kechadi, lekin har bir millat muayyan geografik va tarixiy sharoitda yashaydi. Shu sababli ham uning obrazli mulohaza, fikrlash tarzi o'ziga xosdir [7.35-b]

Frazeologik birliklarni va so'z birikmalarini bir-biridan farqlash lozimdir. Iboraga tarkibida kelganda yoki yakka holda ham, u bir necha so'zdan iborat bo'lsa ham, bitta so'roqga javob berib, bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi. So'z birikmalarida tobe va hokimlik munosabatini ifodalab, har qaysisi alohida savollarga javob bo'ladi. Masalan, "Ilonning yog'ini yalagan" ibora sifatida kelganida –"ayyor" ma'nosida qo'llanilib, gap tarkibida bitta so'roqga javob bo'ladi, bitta gap bo'lagi vazifasida keladi. So'z birikmasi sifatida kelsa – "Ilonning yog'i" ilonning – nimaning?, yog'i – nimasi? yalagan-nima qilgan? kabi savollarga javob bo'lib, moslashuv yo'li orqali bog'langan so'z birikmasi hisoblanadi. Insonlar o'z nutqida iboralarni to'g'ri qo'llay olar ekan - bunday inson gapga chechan, dunyoqarashi keng va nutqda bir xillikdan qochuvchi inson sifatida qaraladi.

Ma'lum bir xalqning ijtimoiy hayotini, yashash sharoit tarzini, madaniy saviyasini tadqiq qilishda o'sha xalq tilidagi lug'aviy birliklarni, jumladan, frazeologizmlarni chuqur o'rganish kerak bo'ladi. Sh.Rahmatullayev tuzgan frazeologik lug'atda umumxalq iboralar, ularning variantlari shuningdek o'zbek badiiy adabiyotlarda qo'llanilishiga doir to'plangan materiallarga asoslanib tuzilgan, hamda ularning nutqdagi izohlari badiiy asarlardan foydalangan holda keltirilgan. Bu lug'atlarda hayvon nomlari bilan bog'liq iboralar ham keltirilgan bo'lib, biz esa shulardan foydalangan holda o'g'uz lahjasining Xorazm shevalaridagi hayvan nomlari bilan bog'liq zoofrazeologizmlarni tahlil qilishga harakat qildik.

Zoofrazeologizmlar odamning fe'l-atvorini, holatini, xatti-harakatlarini va xulq-atvorini salbiy ham ijobiy ekanligini obrzli tarzda ifodalash uchun ishlatiladi, bu hayvonot dunyosi vakili idrokining o'ziga xosligi bilan izohlanadi, bunda



frazeologizmlar xuddi ana shu hayvonning o'xshash belgilar orqali tavsiflanadi. Hayvonlar obrazi asosida shakllangan iboralar Xorazm shevalarida ham ko'p uchraydi, hayvonlarning ma'lum bir xususiyatlarini timsollashtirish asosida shakllangan. Hayvonlarning yurish-turishi, ayrimlarini bajaradigan vazifasi ma'lum hududda yashovchi insonlar hayotida, ijtimoiy turmush tarzida tutgan o'rni uning shu xalqning urf-odat va idrokida qanday ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

O'zbek adabiy tili va shevalaridagi iboralarida **eshak** boshqa hayvonlarga nisbatan ko'proq qo'llanadi. Ushbu iboralar ko'proq salbiy xususiyatga egaligi bilan boshqa zoofrazeologizmlardan farq qiladi. Ushbu iboralardagi ma'no ko'chish majoziy emas, balki, insonlarga xos salbiy xatti-harakatlar va xarakterlarni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Adabiy manbalarda eshak mehnatkashligi bilan ajralib turadi, biroq, uning terisidagi yag'irliq, bu hayvonga xos ba'zi yomon xatti harakatlari, insonlarga qiyoslanish yo'li bilan quyidagi iboralar kelib chiqqan. Masalan: «**Yuzi eshakni derisidin qolin**» ayrim holatlarda «**Yuzi eshakni derisinnanam qoling**» tarzida qo'llaniluvchi ushbu ibora uyalmaslik, andisha qilmaslik ma'nolarini bildiradi. Uning o'zbek adabiy tilida «Yuzi chidaydi», «Beti chidaydi» singari sinonimlari mavjud. Ushbu iborada eshakning terisi qalinligi emas balki eshakni ursang ham so'ksang ham befoyda baribir unga ta'sir qilmasligi insonlarga ko'chirilgan. Yana shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi adabiy tildagi iboralarda eshakni befarosat, qaysar hayvon ekanligi ta'kidlangan. «**Eshaki tushoqino loyiq**» iborasi esa munosib, loyiq ma'nolarini ifoda etadi. Ushbu lug'aviy birlik, o'zbek adabiy tilidagi «Uzukka ko'z qo'ygandek» hamda «Eshakiga mos tushovi» iborasiga teng, ammo ularning bir-biridan farqli jihati shundaki, ushbu iboraning o'zbek adabiy tilidagi varianti ijobiy, sheva varianti esa salbiy ma'nolarda qo'llaniladi.

«**Mulla mingan eshakdin**» iborasi yuvosh degan ma'noni bildiradi hamda o'zbek adabiy tilidagi qo'y og'zidan cho'p olmagan iborasiga teng. Ota bobolarimiz mullalar ibodat yo'lida yurgan yaxshi insonlar bo'lgani uchun ular mingan yomon eshak ham yuvosh bo'lib qoladi degan fikrga kelganlar. Ushbu ibora bugungi kunga qadar o'z qiymatini yo'qotmay kelmoqda.

Burga hayvon bo'lmasada tirik jonzot (parazit hasharot) hisoblanadi, bu nom bilan ham qo'llanadigan frazeologizmlar mavjud bo'lib, o'zbek adabiy tilida «**Burga achchiq qilib ko'rpani kuydurish yomon**» iborasi mavjud. [12.112-b]

Xorazm hududida esa «**O'ta tushgan biradin**» iborasi qo'llaniladi. Ushbu ibora hovliqma odamga nisbatan ishlatilib, bir ishni bitkazolmay u yoqdan bu yoqqa yugurgilab yurish ma'nosini bildiradi. O'zbek adabiy tilidagi «**Oyog'i kuygan tovuqday**» iborasiga teng keladi.



Xorazm o'g'uz shevalarida yana bir parazit hashorot bilan bog'liq ibora mavjud. Aslida bu hashorot bit aslida insonning qonini so'rish bilan shug'ullanadi. Bu ibora majoziy ma'noga ega bo'lib, o'zida bor va ko'p bo'lgan narsani ham boshqalarga bermaslik qizg'anish ma'nosida ishlatiladi. **“Bitini siqsong, qon chiqmidi”** ziqna, qizg'anchiq degan ma'nolarni anglatadi. Bu iboraning shu sheva tilida **“Bitina qon barmidi”**, **“Bitini siqib qonini yolidi”** kabi sinonim variantlari ham qo'llanadi. Bu iboraning barcha variantlari birgalikda, salbiy bo'yoqdorlikka ega iboralarning sinonimik qatorini tashkil qiladi.

“O'li tononi go'zzidin” iborasi mavjud bo'lib uni asosan Xazarasp tuman aholisi so'zlashuv nutqida va Yangariq tumanining Chiqirchi, Qo'riqtom, Qarmish qishloqlari shevasida ishlatiladi hamda ko'zni olaytirish, ko'zni suzish ma'nolarini bildiradi. Tono sheva so'z hisoblanib, sigirning bolasi buzoqqa nisbatan qo'llanadi. Masalan: Go'zzing oloyip getti o'li tononi go'zzidin.

“Gechini ald oyoqidin” hamma joyda birinchilardan bo'lib yuruvchi insonlarga nisbatan ishlatilib, u **“Itni ald oyoqi”** tarzida ham qo'llanadi. Gechi bu adabiy tildagi echkidir. Echki odatda cho'ponga ham bo'ysunmay qo'ylardan oldin ketib qoladi. Ushbu ibora ham aynan shunday insonlarga nisbatan qo'llanilgan

“Do'g'ri gayan do'ngizdin” fahm-farosatsiz insonlarga nisbatan qo'llaniladigan bu ibora ko'p hollarda kimdir bir narsalar ustida ishlab o'tirganida farosatsizlarcha narsalar ustidan bostirib yurib ketaveradigan insonlarga aytiladi. Iborada aytilgan do'ng'iz so'zi yovvoyi to'ng'izga nisbatan ishlatiladi.

Shuningdek, Xorazm shevalarida “Inna yutgon itdin” iborasi ozg'in odamga nisbatan ishlatiladi va juda ozg'in degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, Xorazm viloyatining Qo'shko'pir shevasida **“Mol yolog'on qoziqdin”** ko'rinishidagi variantdoshi ham uchraydi. Ushbu iboralarning birinchisida, inson bir narsaga siqilib, adoyi tamom bo'lgan degan ma'noni anglatadi, ikkinchisi esa o'zbek adabiy tilidagi **“Eti suyagiga yopishgan”**, ya'ni, ozg'in degan ma'noni anglatadi.

Bi bechoro bizmiqdin adi, menati og'ir o'xshidi inna yutgon itdin bo'lipti. (Shu sheva og'zaki nutqidan)

Ita soyo barmidi(ita hayri deymidi) hech kimga nafi tegmaydigan odamga nisbatan qo'llaniladi. Chunki it ham akillashdan boshqaga yaramaydi deyarli hech kimga nafi tegmidi. *Ita soyo barmin girip-chiqovarma*(Shu sheva og'zaki nutqidan)

“Itni odini marjon qo'yg'ondin” iborasi ham mavjud bo'lib, bu ibora xarakteri yomon, hurmat qilish va maqtashga loyiq bo'lmagan insonga mos bo'lmagan ijobiy tarzda murojaat qilish.

Azizbeka siz-bizlab, bek dap so'llap yurvadim yo'xshiliq yoroshmidi akan itni odini marjon qo'yipmon oxir. (Shu sheva og'zaki nutqidan)



“Tondiro qorog‘on kuchukdin” iborasi bir narsadan umidvor bo‘lib, ta‘ma qilib qarab o‘tirgan odamga nisbatan ishlatiladi. Bolog‘inom tondiro qorog‘on kuchukdin amizishimni kutib o‘tiripti (Shu sheva og‘zaki nutqidan).

Har qanday frazeologizm ma‘lum bir xalqning turmush tarzi, milliy madaniyati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Agar iboralar so‘zlashuv uslubida va aynan o‘zbek shevalarida qo‘llanganda esa, nafaqat o‘sha insonning, balki u bilan bir hududda yashovchi xalqning turmush tarzini hamda ma‘naviy dunyosini ko‘rsatib beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, zoofrazeologizmlar insonlarning ichki dunyosini, tashqi olamdagi hayvonlar siymosida ko‘rsatib berishga xizmat qiladi, hamda odamlarning ko‘ngliga ozor yetkazmay, hazilomuz tarzda ifoda qilinish xususiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol. fan. dok. ...dis. –T., 1999. –321 b.
2. Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. –T., 1991. -120 b.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba‘zi masalalari. -T.:1966. -264 b.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe‘l frazemalarning bog‘lashuvi. –T.: Universitet, 1992.126 b
5. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2011.
6. Ishaev A. O‘zbek dialektal leksikografiyasi.- Toshkent: Fan, 1990
7. Tursunov, Muhiddinov “Frazeologik birliklarning asosiy ma‘no turlari” Toshkent-1995
8. Polivanov E.D. Uzbekskaaya dialektologiya i uzbekskiy literaturniy yazik. – Tashkent: Uzosizdat, 1933. str. 3.
9. Frazeologiya i kontekst. –S., 1987. -151s.
10. Mamatov A. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Fil. fan. dok... diss. –T., 1991. -285 b.
11. Pinxasov Ya.D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya.-T.:O‘qituvchi, 1960, -80 b.
12. Sh.Rahmatullaev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva Sh. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: 2022.